“Indorama Agro”ning aylanma mablag’lar bo‘yicha krediti

Mamlakat:	O‘zbekiston
Loyiha raqami:	51011
Faoliyat sohasi:	Agrobiznes
Bildirishnoma turi:	Xususiy
Loyihaning ekologik toifasi:	A
Tasdiqlanadigan kuni:	2020-yil, 2-sentyabr
Bosqich:	Konsepsiya muhokamadan o‘tgan
Loyihaning qisqacha mazmuni hujjati (PSD) ni oshkor etish sanasi:	2020-yil, 24-aprel

Loyiha mazmuni

“Indorama Agro” MCHJ xorijiy korxonasiga o‘z kapital xarajatlari va aylanma kapitalidagi ehtiyojlarni qoplashi uchun umumiy summasi 70 million AQSh dollarigacha bo‘lgan ikki turdagi kreditlar berish.

Loyiha maqsadi

Bu loyiha O‘zbekistondagi paxta sanoatiga xususiy sektor tomonidan qilinayotgan sezilarli investitsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Bu mexanizatsiyalashtirilgan paxta yig‘im-terimini targ‘ib qiladi va ekologiya va faoliyat turidagi ahamiyatli ijobiy o‘zgarishlarni olib keladi, jumladan: (i) suvdan foydalanishni optimallashtirish uchun yerlarni tekislash va muqobil sug‘orish tizimlarini tadbiq qilish; (ii) mineral o‘g‘itlarni samarali ishlatish; (iii) sug‘orish va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish; (iv) qishloq xo‘jaligi ekinlarining zaxiralarini boshqarilishini takomillashtirish.

O‘tish davri ta’siri

Kutilayotgan o‘tish davri ta’siri (KO‘DB) bahosi: 82

Bu loyiha raqobatbardoshlikning oshishi va iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanish darajasini ko‘tarilishiga ko‘maklashishi kutilmoqda.

Ushbu loyiha dehqonchilik faoliyatini qayta tizimlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, uning maqsadi O‘zbekistonda

barqaror tarzda paxta yetishtirish uchun Yaxshi paxta tashabbusi (Better Cotton Initiative) yoki unga muqobil xalqaro standartlarni joriy etishdir.

Bundan tashqari, mazkur loyiha O‘zbekiston ta’lim sohasining 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan rejasiga mos keladigan yangi o‘quv dasturlarini yaratish orqali yoshlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Loyiha mahalliy pillachilik faoliyatini kengaytirish va Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda maktabgacha ta’lim markazlarini qayta ta’mirlash orqali mamlakatning chekka hududlari va qishloq joylaridagi aholi, ayniqsa, ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Mijoz haqida

“INDORAMA AGRO” MCHJ xorijiy korxonasi

“Indorama Agro” MCHJ xorijiy korxonasi “Indorama Holdings B.V.” kompaniyasiga tegishli bo‘lib, o‘z navbatida, bu kompaniya Singapurda joylashgan “Indorama Corporation Pte. Ltd.” (IRC) jamiyatiga qarashli sho’ba kompaniya hisoblanadi.

IRC esa, Osiyodagi yetakchi sanoat konglomeratlaridan hisoblangan, neft kimyosi, mineral o‘g‘itlar va shunga bog‘liq sohalarga katta sarmoya kiritgan “Indorama Group” kompaniyasining xolding kompaniyasidir. S.P Lohia janoblari va uning oila a’zolari IRC kompaniyasining to‘liq egasi sanaladi. Indorama Group 1975-yilda Indoneziyada tashkil qilingan. Bu kompaniya g‘arbiy Afrikadagi eng yirik neft asosidagi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarib, u shuningdek olefin, poliolefin, fosfor kislotasi, fosforli o‘g‘itlar, ammiak, karbamid va dunyodagi eng yirik sintetik bir martalik qo‘lqop ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi. Tailandda joylashgan “Indorama Ventures Public Company Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikda Indorama Group kompaniyasi poliefir, poliefir xom ashyosi va sintetik tola ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. U dunyoning 37 mamlakatida 136 ta zavodga ega bo‘lib, yiliga 24,5 million tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Kompaniyaning yillik daromadi esa, 15 milliard AQSH dollaridan oshadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) ning loyihani moliyalashtirish bayoni

10 000 000,00 AQSh dollari

Loyihaning kapital xarajatlarini moliyalashtirish uchun 60 million AQSh dollarigacha bo‘lgan kredit mablag‘lari va aylanma kapitali uchun 10 million AQSh dollarigacha bo‘lgan mahalliy valyutada (so‘m) ekvivalentida mablag‘lar taqdim qilinadi

Loyihaning umumiy qiymati

285 000 000,00 AQSh dollari

285 mln. AQSh dollarigacha Kapital xarajat ehtiyojlarilarni moliyalashtirish uchun 185 million AQSh dollari va aylanma kapital ehtiyojlari uchun 60-100 million AQSh dollari

Bankning toʻldiruvchanligi

YTTB mahalliy bozorda foydalanish imkoni yoʻq boʻlgan shartlarga koʻra moliyalashtirishni taklif qiladi. Bu munosabatlarda Bankning oʻzining ham ishtirok etishi nomoliyaviy xavflarni kamaytirgan holda, mijozlar va investorlarga qoʻshimcha qulaylik yaratadi. Bu loyiha kompaniyaning yanada yuqori ekologik standartlarga erishishi va gender va iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishning ijobiy natijalarga yetishishi yoʻlidagi salohiyatini mustahkamlanishiga koʻmaklashadi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

A toifasiga kiritildi (Bankning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosati yoki ESP, 2014). Mazkur loyihaning, xalqaro maslahatchilar tomonidan YTTB va Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) oʻrtasida kelishilgan texnik topshiriqqa muvofiq, Ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholash (ESIA) ishlab chiqildi. Bu ESIA maqsadi Loyiha bilan bogʻliq ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni aniqlash, shuningdek, atrof-muhit, salomatlikni asrash, texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi hamda boshqa ijtimoiy talablar, YTTBning ijro talablari (PR) va XMK ijro standartlariga koʻra baholashdan iborat. ESIA dastlabki oʻrganish orqali amalga oshirildi va 2019-yilning sentabr oyida ishlab chiqilgan Manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro harakatlar rejasiga asoslandi. ESIA 2020-yilning 24-aprelida http://www.indorama-agro.com/news.php veb-sahifasi orqali keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilindi.

ESIA orqali aniqlangan, Loyihani amalga oshirish bilan bogʻliq ehtimoliy bevosita salbiy ta'sirlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

hukumat tomonidan paxtachilik klasterlar tashkil etish natijasida yerlarni tasarruf etish bilan bogʻliq muammolar;

pudratchi fermer xoʻjaliklarida majburiy mehnatdan foydalanishning ehtimoliy davom ettirilishi;

paxta yetishtirish sohasidagi bandlikning qisqarishi;

sugʻorish suvining mavjudligi va undan foydalanish;

Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar, masalan, chang, dizel yoqilgʻisi chiqindilari, qishloq xoʻjaligida qoʻllaniladigan mineral oʻgʻitlar va zararkunanda hasharotlarga ishlatiladigan vositalar, paxta tozalash zavodlaridan chiqadigan zararli chiqindilar.

Fermer xoʻjaliklarida maxsus tasdiqdan oʻtgan kimyoviy vositalardan foydalanish.

Kompaniyada 31-mart holatiga koʻra, paxta ishlab chiqarishda 3200 ga yaqin ishchilar faoliyat koʻrsatadi, ularning 97 foizi loyiha joylashgan ikkita hududdan jalb qilingan. 162 nafarga yaqin ishchilar ikkita paxta tozalash zavodiga, oʻn kishi esa ishchilar yashashi uchun moʻljallangan ikkita binoga xizmat koʻrsatishga yoʻnaltiriladi. Hozirgi

vaqtda ayollar barcha ish oʻrinlarining 7 %ga egalik qiladi, biroq ushbu koʻrsatkich loyihalar hududida (4-9 %) va kompaniyaning Toshkentdagi bosh idorasida (27 %) keskin farq qiladi. “Indorama Group” korporativ darajadagi oʻz Xodimlarni boshqarish (“Kadrlar”) qoidalari, Axloq kodeksi va Inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha nizomiga ega boʻlib, bu hujjatlar unga qarashli barcha kompaniyalar, jumladan “Indorama Agro” jamiyati tomonidan ham qoʻllaniladi. Kompaniyaning kadrlar bilan ishlash tartib-qoidalari YTTBning Ijro talablari 2-bandi (PR2)ga toʻliq mos keladi. “Indorama” ning genderga asoslangan zoʻravonlik va tazyiq borasidagi munosabatini rasman bildirish uchun “Indorama” genderga asoslangan zoʻravonlik va tazyiq holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish uchun aniq talab va tartiblarni ishlab chiqadi. Shuningdek, barcha kompaniya xodimlari, pudratchi fermer xoʻjaliklari va asosiy yetkazib beruvchilarning vakillariga bu talablarni e'lon qiladi.

“Indorama Agro” jamiyati paxta yetishtirish va terishda, shu jumladan pudratchi fermer xoʻjaliklarida yoki boshqa har qanday amaliyotlarida bolalar va majburiy mehnatning oldini olish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi. “Indorama Agro” jamiyatining xoʻjaliklaridagi ishlarni (jumladan, hosilning yigʻim-terim ishlarini) mexanizatsiyalash mehnatning nomaqbul shakllariga yoʻl qoʻymaslikka yordam beradi. “Indorama Agro” jamiyatining pudratchi fermer xoʻjaliklarida majburiy mehnat xavfini boshqarish uchun mavsumiy ishchilarni yollash va nazorat qilishning markazlashtirilgan tizimidan foydalanadi. 2019-yilda “Indorama Agro” jamiyatining bevosita va pudratchi fermer xoʻjaliklari uchun 2019-yildagi paxta terimida bolalar va majburiy mehnat yoʻqligini hujjatlashtiradigan ishonchli monitoring dasturi ishga tushirildi.

Gigiyena va mehnat muhofazasini (OHS)ni boshqarish uchun Indorama Agro jamiyati mavjud yondashuvlarni qayta ishlab chiqishda davom etadi va OHS boshqaruv tizimini joriy etadi. Bu tizim esa, oʻz navbatida, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi boʻyicha mutaxassislarni yollash, OHS hamda qishloq xoʻjaligi texnikasidan foydalanishning standart tartiblari boʻyicha oʻquv kurslari, xavfli vositalarni saqlash va ulardan foydalanish kabi faoliyatlarni oʻz ichiga oladi. Gigiyena va mehnat muhofazasini boshqarishning mazkur tizimi ISO 45001 kabi eng yaxshi sanoat amaliyotlariga asoslanadi va faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi. “Indorama Agro” jamiyati infratuzilmaning bir qator sohalarida kichik pudratchilar xizmatidan foydalanadi va ular uchun ham pudratchilar uchun qoʻllaniladigan gigiyena va mehnat muhofazasi amaliyotlari qoʻllaniladi. Manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro harakatlar rejasida keltirilganidek, Indorama jamiyati keng jamoatchilikka muntazam ravishda axborot beradi va maslahatlashuvlar tashkil qiladi, buning uchun alohida jamoatchilik bilan aloqalar boʻyicha mutaxassislari (CLO) faoliyat koʻrsatadi. Bunda jamoatchilikning har qanday shikoyatlarini oʻz vaqtida koʻrib chiqish uchun rasmiy va tizimli mexanizmni joriy qiladi. Shikoyatlarni koʻrib chiqish boʻyicha mazkur mexanizm jamiyatning faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan ekologik, ijtimoiy va boshqa xavflar boʻyicha shikoyat qilishi mumkin boʻlgan har qanday jamiyatga tegishli maslahat va javoblarni berish yondashuvlarini mustahkamlaydi. Qurilish va texnik xizmat koʻrsatish ishlari aholi yashash joylariga yaqin joylashgan hollarda, “Indorama” zararkunanda hasharotlarga qarshi vositalarni purkash va/yoki qishloq xoʻjaligi ishlari kabi zararli ta’sirlarni kamaytirish uchun qishloq xoʻjaligi boʻyicha faoliyat hududlari va turar-joylar oʻrtasida 20 metrlik himoya hududi yaratadi.

Ajratilgan yer faqat paxta va almashlab ekish asosidagi ekinlarni yetishtirish uchun foydalaniladi. Loyihaning boshqa obyektlari (paxta tozalash, fermer xoʻjaligi omborlari, ma'muriy va yashash uchun ajratlgan binolar) uchun yerlar yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini buzmagan holda davlat banklari yoki jismoniy shaxslardan sotib olingan yoki ular bilan kelishilgan holda ajratilgan. Loyiha uchun hukumat boshchiligidagi yer uchastkalarini ajratish jarayoni 2018-yilda mahalliy hokimliklar tomonidan oʻtkazilgan maslahatlashuv va muzokaralardan soʻng yakunlandi. Yer sotib olish jarayonida jami 1068 fermer xoʻjaligi bilan yerni ijaraga berish shartnomalari ixtiyoriy ravishda bekor qilindi. Mazkur yerni ijaraga berish shartnomalari yerni ijaraga olganlarning oʻz ixtiyorlariga koʻra bekor qilinganiga qaramay, yerni sotib olish, majburiy ravishda koʻchirish va barqaror iqtisodiy holatning buzilishi boʻyicha 5-loyiha talablari (PR5) bu jarayon uchun amal qiladi. Yerni ijaraga berish shartnomalari bekor qilingan fermer xoʻjaliklarining ijaradan oladigan daromadlarini yoʻqotishi, shu fermer xoʻjaliklarining doimiy ishchilarining oʻz ishini yoʻqotishi, "Indorama Agro" jamiyatining fermer xoʻjaliklarida ishlarning mexanizatsiyalashganligi sababli mavsumiy ish oʻrinlari yaratilmasligi va yerlarni birlashtirish jarayonida paxtachilikka asoslanmagan xususiy fermer xoʻjaliklarining paxta ekilmaydigan yerlardagi muayyan yoʻqotishlari sababli barqaror iqtisodiy holatning buzilishi yuzaga keladi. Yerni ijaraga berish shartnomalarini bekor qilgan fermerlarning 45 % ga yaqini "Indorama Agro" jamiyatiga toʻgʻridan-toʻgʻri ishga qabul qilindi. Odatda, ayollar begona oʻtlardan tozalash, chilpish, chopiq, yagonalash, terim kabi mavsumiy ishlar bilan shugʻullanadilar (ayniqsa, ba`zi mavsumiy ishchilar daromadining 50% gacha qismini tashkil qiladigan yigʻim-terim ishlari) va yilning boshqa paytida boshqa daromad manbalariga ega boʻlmaydilar.

Turmush sharoitini tiklash rejasi (LRP) mahalliy daromad olish imkoniyatlarini yaratish uchun ishlab chiqilgan. Bu boradagi eng yaxshi yoʻnalish ipak qurti boqish boʻlib, u pillachilikdagi mahalliy salohiyat va tajribalarni kengaytirishni oʻz ichiga oladi. Hozirda bu boʻyicha boshqa yoʻnalishlar ham ishlab chiqilmoqda: 1) bozor uchun ekinlarni (masalan, meva va sabzavotlar) yetishtirishni qoʻllab-quvvatlash; 2) daromadlari yoʻqolishidan zarar koʻrgan oilalardagi ayollarga tikuv mashinalari berish; 3) ayollarni ishga jalb qilish uchun mahalliy bolalar bogʻchalari va bolalarga moʻljallangan muassasalarni tiklash.

Oʻzbekiston paxtachiligini isloh qilish boʻyicha qarorlarni qabul qilish, yer olish va ESIA tayyorlash jarayonlarida manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro harakatlar amalga oshirildi. ESIA jarayonining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan Manfaatdorlarni jalb qilish rejasi (SEP) bugungi kunga qadar manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro amalga oshirilgan ishlarni hujjatlashtiradi va bevosita zarar koʻrgan xoʻjaliklarga urgʻu bergan holda, kelgusida agrotexnik jihatdan qoʻllab-quvvatlash, fermer xoʻjaliklarining samaradorligi va unumdorligini oshirish uchun moʻljallangan oʻquv kurslarini koʻrsatib oʻtadi. COVID-19 virusi sababli mamlakatda belgilangan cheklovlar va ijtimoiy masofa saqlash tadbirlarini hisobga olgan holda tegishli maslahatlarni oʻtkazish uchun "Indorama" ESIA e'lon qilish davri uchun muqobil rejalarni ishlab chiqadi. Indorama Agro ESIA'ning 60 kunlik e'lon qilish davrida tatbiq qilinadigan muqobil maslahat strategiyasini oʻz ichiga olgan qisqa va amaliy rejalarni ham ishlab chiqadi. Bu reja ESIA e'lon qilingan kundan boshlab 10 kun ichida ishlab chiqiladi va ESIA'ning boshqa hujjatlari bilan birga Indorama Afro jamiyati va YTTB veb-sahifalarida e'lon qilinadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf qilish maqsadida, keng jamoatchilikka e'lon qilinadigan hujjatlar to'plamining bir qismi sifatida, Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (ESMP) va Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) ishlab chiqildi va e'lon qilindi. ESMP va ESAP rejalarining asosiy maqsadi paxtachilik bo'yicha taklif qilinayotgan Loyihaga bo'ladigan ehtimoliy nomaqbul ta'sirlarning oldini olish yoki bunday ta'sirlarni kamaytirish uchun mo'ljallangan ekologik va ijtimoiy choralarni ta'minlashdan iborat. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekistonning qonuniy hujjatlari va o'rnatilgan tartiblarga rioya qilinishini ta'minlash choralari;

YTTBning loyiha talablari va XMKning loyiha shartlariga rioya qilinishini ta'minlash choralari;

Ta'sirni boshqarish, monitoring va hisobot berish bo'yicha tavsiya etilgan eng yaxshi tajribalar.

Loyiha bosqichidagi vaziyatga qarab talab qilinadigan boshlang'ich boshqaruv rejalari Havo sifatini boshqarish, Suv resurslari va suv sifatini boshqarish, Chiqindilarni boshqarish, Transport va yo'l harakatlarini boshqarish, Shovqin va tebranishlarni boshqarish, Gigiyena va mehnat muhofazasi, Obyektdagi chiqindilarni utilizatsiya qilish, Avariyaviy vaziyatlarga tayyorlik va ularni bartaraf qilish, Pudratchi tashkilotlar bilan ishlash kabi alohida rejalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy boshqaruv rejalari Turmush sharoitini tiklash, Kadrlarni boshqarish rejalari, Pudratchi fermer xo'jaliklarining mehnat standartlari va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro harakat rejalarini o'z ichiga oladi. Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda, "Indorama Agro" jamiyati o'z faoliyatini Better Cotton Initiative (BCI) (Yaxshi paxta tashabbusi) standartlariga muvofiqlashtirish ustida ishlaydi. Bu standart qishloq xo'jaligi ekinlarini himoyalash, suvdan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, bioxilmaxillik va yerdan foydalanish, tola sifati, munosib ish va boshqaruvdek yettita eng muhim tamoyilni ko'zda tutadi. BCI tizimiga muvofiqlashish Loyiha doirasida ekologik va ijtimoiy masalalar to'g'ri yechim topishiga yana bir bor ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, kompaniyadan ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va amalda joriy qilish uchun Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'limini tashkil qilinishi ham talab etiladi.

1-ILOVA: MAJBURIY MEHNAT XAVFLARI BO'YICHA SO'NGGI VAZIYAT VA PAXTACHILIK SOHASIDAGI HUKUMAT ISLOHOTLARINING HOLATI

Majburiy mehnat xavfi bilan bog'liq muhim ijobiy o'zgarishlar

Paxtachilik sohasida majburiy mehnat xavfi bilan bog'liq asosiy ijobiy o'zgarishlar umumlashgan holda quyidagicha ifodalanadi:

- 2019-yilda 1,75 million kishi qo'lda paxta terishga jalb qilindi, bu mamlakatdagi katta yoshdagi (18-50 yosh) aholining 12,5 foizini tashkil etadi.
- **Avvalgi ikki yildagi kabi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) 2019-yilda paxta yig'im-terimi ishlarida bolalarning tizimli mehnati yo'qligini tasdiqlaydi.** Maktab o'quvchilari va talabalar endi paxta terishga jalb qilinmayaptilar.

- **XMT tashqi monitoringi dalolat berishicha, 2019-yilda paxta yig‘im-terimi davrida tizimli majburiy mehnat kuzatilmagan, ammo mahalliy darajada hukumat islohotlarini amalga oshirishda muammolar hamon yo‘q emas.**
- 2019-yilda majburiy mehnat xavfi ostida bo‘lganlar soni 40 foizga kamaydi. Biroq, paxta yig‘im-terimi jarayonlarida muammo haligacha mavjud edi: taxminan 201000 kishi (paxtakorlarning 5,9 foizi) 2019-yilda majburiy mehnat bilan bog‘liq xavflarga duch keldi. XMT o‘tkazgan monitoringda aniqlanishicha, quyidagi ko‘rinishdagi holatlar haligacha kuzatilmoqda ekan: (i) muassasalar, kompaniyalar va mahallalar orqali terimchilarni majburiy yollash; (ii) askarlarni harbiy sanalmaydigan ishga jalb qilish; bu ko‘proq iqtisodiy rivojlanish maqsadida ish kuchini safarbar qilish usuli xolos; (iii) paxta yig‘im-terimida ishtirok etishni majburiy ekanligini ko‘zda tutgan holda, uni hashar sifatida ta’riflash; (iv) kompaniyalar va jismoniy shaxslardan paxta yig‘im-terimida qatnashmaganlik evaziga pul undirish.
- XMT monitoringi ish haqi avvalgi paxta mavsumiga nisbatan oshganligini tasdiqladi. Bir kilogram terilgan paxta uchun 2018-yilda terimchiga 700 so‘mdan 1300 so‘mgacha to‘langan bo‘lsa, 2019-yili bu ko‘rsatkich 800 so‘mdan 1400 so‘mgachani tashkil qildi. Avvalgi yillar kabi, bu yil ham paxta terimidan topiladigan mablag‘lar uy xo‘jaliklari uchun muhim daromad manbai hisoblanadi: Jami terimchilarning 39% qismi ta’kidlashicha, ularning paxta terishdan oladigan naqd pullari ularning to‘liq yillik daromadlaridir.
- XMT tashqi monitoringida aniqlanishicha, ba’zi viloyatlarda qayd qilingan majburiy mehnat holatlari boshqalariga qaraganda ko‘proq ekan. Xususan, XMTning kuzatuvchilari tomonidan Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm va Toshkent viloyatlarida ommaviy yollash holatlari yoki navbatchi kuzatuvchilarning mavjudligi holatlari ancha ko‘p kuzatildi. Shu bilan birga, 2019-yilgi paxta yig‘im-terimi vaqtida rasmiy murojaat qilish mexanizmlari orqali majburiy mehnatga oid 1282 ta shikoyat kelib tushdi. Jizzax, Sirdaryo, Suxondaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida ko‘proq bunday holatlar qayd etildi. Hisobotda ta’kidlanishicha, muayyan sohalarda majburiy mehnatning xavfini bashorat qilish uchun ishchi kuchiga bo‘lgan talab va bepul ishchi kuchi mavjudligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Tashqi monitoring hisobotida rasmiy ma’lumotlarga asosan hisoblangan ixtiyoriy terimchilar ko‘lami indeksi mavjud bo‘lib, u tuman miqyosida majburiy mehnat xavfi ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Paxta sohasidagi davlat islohotlarining natijalari

2019-yilda O‘zbekiston qonunchiligida paxta yetishtirish usullarini o‘zgartirishda davom ettiruvchi va paxta sohasida majburiy mehnat xavfini kamaytiruvchi jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. **2020-yil 6-martda mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi muhim qarorni imzoladi va paxta yetishtirishda majburiy mehnatdan foydalanishning asosi sanalgan paxta xomashyosini yetishtirishda davlat buyurtmasini (kvota tizimini) bekor qildi.** Prezident qaroriga binoan paxta yetishtirish sohasiga kiritilgan boshqa muhim o‘zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. paxta xomashyosining xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechildi;

2. paxta xomashyosini ixtiyoriy yetishtiruvchilarni (fermer xoʻjaliklari, paxta-toʻqimachilik klastyerlari, kooperatsiyalar) tashkil qilindi;
3. paxta xomashyosi yetishtirish uchun fermerlarga beriladigan, davlat tomonidan subsidiya qilinadigan imtiyozli kreditlarni bekor qilish (yer maydoni toʻliq paxta-toʻqimachilik klasteriga berilgan hududlar bundan mustasno);
4. paxta yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlaridagi oʻzgarishlar (ma'lum muddatda paxtachilik kooperatsiyalari va klasterlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash);
5. (e) paxta yetishtirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul boʻlgan davlat korxonasi hisoblangan "Oʻzpaxtasanoat" AJni tugatish va paxtani qayta ishlash korxonalarini paxtachilik/toʻqimachilik klasterlariga oʻtkazish.

Yana bir muhim hujjat sifatida, 2019-yil dekabr oyida Oliy Majlisning yuqori palatasi tomonidan qonunchilikka majburiy mehnat va bolalar mehnati uchun jinoiy javobgarlikka tortish toʻgʻrisida tartib kiritilishini taklif qildi va bu yangi qonunchilik hujjati Prezident tomonidan 2020-yil yanvar oyida imzolandi. Yangi qonun 2020-yil aprel oyida kuchga kiradi; hozircha biror sudda bu boʻyicha ish ochilmagan. Yangi qonunchilik hujjatining qabul qilinishi bilan bolalar va majburiy mehnat bilan bogʻliq jinoyatlar uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlarini oʻz ichiga olishi mumkin.

Paxta yetishtirishga ixtisoslashgan xususiy paxta-toʻqimachilik klasterlari

Paxtachilik klasterlarining paxta yetishtirishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. 2018-yilda Oʻzbekistonda 13 ta klaster tashkil etildi (har bir viloyatda bittadan). 2019-yilda bu raqam 58 taga yetdi; mamlakatdagi 70% dan ortiq paxta hosili klasterlar tomonidan yigʻib olindi. 2020-yilning mart oyida 89 ta klaster roʻyxatga olindi; mazkur klasterlar 2020-yilda va kelgusi yillarda Oʻzbekistonda paxta yetishtirishi kutilmoqda.

2019-yil uchun XMT tashqi monitoringi hisobotida aytilishicha, klasterlardagi mehnat sharoitlari juda yaxshi deb hisoblanadi, biroq ish haqi toʻlash tizimi fermer xoʻjaligidagi bilan bir xilligicha qolmoqda[1]. Umuman olganda, klasterlarda majburiy mehnat xavfi kamroq boʻlishi mumkin, ammo klasterlar XMT tomondan ham, boshqa tashkilotlar tomondan ham hali tizimli baholanganicha yoʻq.

Fuqarolik jamiyati institutlari (FJI) va ommaviy axborot vositalari (OAV) bilan bogʻliq soʻnggi vaziyat

2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev fuqarolik jamiyatining rolini oshirish toʻgʻrisidagi farmonni imzoladi. Bu hujjatda takomillashtirilishi zarur boʻlgan bir qator yoʻnalishlar belgilangan, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarini roʻyxatdan oʻtkazish va ularning faoliyatini soddalashtirish koʻzda tutiladi. Biroq, farmonning bajarilishi oson kechmayapti, ba'zi fuqarolik jamiyati tashkilotlari byurokratik toʻsiqlarga duch kelishayotgan boʻlsa, boshqalarini roʻyxatdan oʻtkazish uzoq muddat talab qilmoqda.

2019-2020-yillarda Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. 2019-yilda inson huquqlari masalalari bilan shugʻullanuvchi bir nechta axborot agentliklari va xalqaro

fuqarolik jamiyati tashkilotlari O‘zbekistonga to‘liq kirish huquqiga ega bo‘ldi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: “Amerika ovozi”, Amnesty International, Human Rights Watch va boshqalar[2]. **2020-yil mart oyida Adliya vazirligi tomonidan bosh qarorgohi AQSHda bo‘lgan “Mercy Corps” nodavlat guruhi va mahalliy “Huquqiy tayanch” jamoatchilik tashkiloti ro‘yxatga olindi[3].**

Bunga qo‘shimcha tarzda shuni aytish mumkinkli, **bir qancha mustaqil fuqarolik huquqlari faollari XMT o‘tkazgan tashqi monitoringga jalb qilindi va boshqa tarzda 2019-yilda majburiy mehnatga qarshi turli xil targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etdilar**[4]. **Bu faollarning monitoring va huquqni himoya qilish faoliyati bepul va hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirildi.** Mahalliy OAV 2019-yilda majburiy mehnatga oid muammolarni faol ravishda yoritib bordi. Hukumat jurnalistlar va bloggerlarni majburiy mehnatga oid holatlar to‘g‘risida tanqidiy xabarlar berishga chaqirdi[5].

Xuddi shu tarzda, **paxtachilik sohasi ham ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatlari institutlarining diqqat markazida bo‘ldi. 2019-yilda paxtachilik sohasidagi majburiy mehnat xavfidan tashqari, paxta yig‘im-terimida ish sharoitlariga ham ko‘proq e'tibor qaratildi** (shartnomasiz ishlaydigan kishilar va homiladorlik nafaqasini olmaydigan ayollar, og‘ir ish sharoitidagi ayollar, uy sharoitlarining risoladagidek emasligi)[6]. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bunday o‘zgarishlar paxtachilik sohasidagi majburiy mehnatni to‘xtatish bo‘yicha hukumat tomonidan olib borilayotgan islohotlar bilan bog‘liq sezilarli yutuqlarnigina emas, balki mamlakatda so‘z erkinligi holatining yaxshilanayotganini anglatadi.

[1] Manba: ILO TPM, 2019.

[2] O‘sha yerda.

[3] https://eurasianet.org/uzbekistan-sparks-hope-with-registration-of-ngos

[4] Manba: ILO TPM, 2019.

[5] O‘sha yerda.

[6] Manba: http://uzxalqharakati.com/ru/archives/25658
https://labourcentralasia.org/ru/news/fermery-namanganskoy-oblasti-ne-khotyat-rabotat-v-khlopkovom-klastere-oni-schitayut-chto-teryayut-pravo-upravlyat-svoim-khozyaystvom/

Texnik hamkorlik (TC) va grant asosida moliyalashtirish

Kompaniyaga texnik hamkorlik doirasida loyihani ekologik va ijtimoiy ekspertiza qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 150 000 yevrogacha mablag‘ ajratiladi. Texnik hamkorlik bo‘yicha topshiriq Kompaniyaning 30 foizlik badali hisobidan amalga oshiriladi. Bunga qo‘shimcha tarzda, yosh yigit-qizlar uchun zarur bo‘lgan yangi o‘quv dasturlarini sihlab chiqish va mahalliy maktabgacha tarbiya muassasalarini imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha mutaxassislar yo‘riqnomalari uchun texnik hamkorlik tomonidan 75000 yevrogacha mablag‘ ajratiladi. Texnik hamkorlik bo‘yicha topshiriq Kompaniyaning 15 foizlik badali hisobidan amalga oshiriladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Amit Jain
a_jain@indoramaglobal.com
+998 71 233 2264
www.indorama.com
Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi 11/1-uy. 100100 O'zbekiston

Loyihaning qisqacha mazmuni hujjati so'nggi marta yangilangan sana

2020-Yil 28-aprel

Shu mavzuga oid material

- Environmental and Social Impact Assessment (Ekologik va ijtimoiy ta`sirni baholash)
  Chop qilingan sana: 2020-yil 24-aprel

O'sh davri nima

O'sh davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumot bilan mana bu havola da tanishishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling. YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o'ng:

Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar YTTB so'rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlan□rish" tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik

doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron pochtasi orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi Axborotdan erkin foydalanish siyosati sahifasiga o'ng.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita oʻzaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga boʼlgan urinishlari samarasiz boʻlsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi yaʼni loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) oʻzlarining oʻsha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga koʻra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin boʻlgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish boʻyicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari oʻrtasidagi oʼzaro aloqalarni oʻrnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tugʻilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan koʻriladigan choralarini koʻzda tutish.

Shikoyatlarni maxfiy elektron shakl yordamida elektron pochta, pochta yoki telefon orqali qanday yuborish haqidagi maʼlumot bilan veb-saytimizda tanishishingiz mumkin. Biz xavotirlaringizni, shuningdek shikoyatlarni joʻnatish va koʻrib chiqish bilan bogʻliq har qanday masalalarni muhokama qilishga tayyormiz. Kerak boʻlsa, arizachilarning shaxsiy maʼlumotlarini maxfiy saqlaymiz.